

## TIZIMLI SKLERODERMA BILAN OG'RIGAN

## BEMORLARDA YURAK VA QON TOMIR ZARARLANISHINI

## ELEKTROKARDIOGRAFIK BAHOLASH

Nabiyeva A.X.

Djuraeva E.R.

Tolipov O'.U.

Bekenova G.T.

Matchanov S.X.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Tizimli skleroderma (TSD) - biriktiruvchi to'qimalarning autoimmun kasalligi bo'lib, uning asosiy klinik ko'rinishi obliteratsiya qiluvchi mikroangiopatiya, teri va ichki organlarning (o'pka, yurak, ovqat hazm qilish tizimi, buyraklar) fibrozi tufayli keng tarqalgan ishemik kasalliklar bilan bog'liq. mushakskelet tizimining shikastlanishi. Turli mamlakatlarda SJS tarqalishi 1 million aholiga 240-290 holatni tashkil qiladi. Ayollar erkaklarnikiga qaraganda 3-7 marta tez-tez kasal bo'lismadi. Kasallikning boshlanishi har qanday yoshda mumkin, ammo 30 yoshdan 60 yoshgacha bo'lган odamlar kasal bo'lismoli ko'proq. SJSning oilaviy holatlari mavjud

**Kalit so'zlar:** TSD, EKG, yurak zararlanishi, tizimli sklerodermiya, kardiorevmotologiya.

**Maqsad:** Tizimli skleroderma (TSD) bilan og'rigan bemorlarda odatda yurak va qon tomir zararlanishi kuzatiladi. Shu ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda bemorlarda elektrokardiogramma qilingandagi o'zgarishlar, yurak urish tezligining o'zgaruvchanligi parametrlarini, shuningdek EKG da boladigan boshqa ozgarishlarni aniqlash. Bu ozgarishlarni kafedra dotsentlari bilan birlgilida tahlil qilish.

**Material va metodlar:** Tizimli skleroderniya bilan oxirgi 5 yillikda kasallangan va aynan shu kasallik buyicha Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikasi

kardiorevmatologiya bo‘limida davolanib kelayotgan 27 nafar bemor (18 ayol va 9 erkak; o‘rtacha  $55.2 \pm 11.3$  yosh) tanlab olindi . Ular doimiy kuzatuvda bolishi va bazis preparatlarini shuningdek puls terapiyalarni oz vaqtida olayotgan bemorlarga standart elektrokardiografiya (EKG) va 24 soatlik Xolter monitoringi tekshiruvlaridan o‘tkazildi. Bu tekshiruv statsionarv holatda qilindi va bemorlar 24 soatlik nazoratga olindi.

**Natijalar:** Kuzatuvga olingan har bir bemordan natijalar yigib olindi va kafedra dotsentlari bilan birgalikda tahlil qilindi. Tahlil natijalariga quyidagilardan iborat boldi. Oxirgi 5 yil ichida kasallangan bemorlarda yurak va qon tomir zararlanishi kamroq kuzatildi. 27 nafar bemorlardan barchasi bazis preparatlarini qabul qilishadi va 10 nafari kuzatuv ostida puls terapiya qilindi. EKG tahlilida 11ta (40.7%) bemorlarda Giss tutami chap oyoqchasi oldingi shoxi blokadasi, Giss tutami o‘ng oyoqchasi noto‘liq blokadasi, qorinchalar ekstrasistoliysi aniqlandi. Sutkalik Xolter monitoring natijasiga ko‘ra, bemorlar yurak qisqarishlar soni deyarli farq qilmadi (YQS  $75 \pm 9$ ta ).Sezilarli bemorlada supraventrikulyar extrasistoliya (PSVCs) va qorinchalar extrasistoliyasi (PVC) kuzatildi. Shikoyat bo‘lmagan holatda 4 nafar bemorda (14.8%) paroksizmal atrial fibrillatsiya va supraventrikulyar taxikardiya epizodlari kuzatildi.

Shuningdek bemorlarning ayrimlari oz xohishlariga kora Exokardiografiya qilindi (27 nafar bemorlaring 9 nafari )va natijada aksariyat bemorlarda yengil o‘zgarishlar va 5 nafar bemorda chap qorincha diastolik disfunktsiyasi aniqlandi.

**Xulosa:** Tizimli sklerodermiya bilan kasallangan bemorlarda yurak va qon tomirlar zararlanishi kuzatildi va bu bemorlar yurak qon tomirv sistemasidagi chuqr ozgarishlarni oldini olish va erta tashxis quyish maqsad qilindi.Yurak va qon tomir zararlanishi bilan kechgan Tizimli sklerodermiya kasallikligida noinvaziv elektrokardiografik usullar yurakning zararlanishini erta bosqichlarda aniqlash uchun eng qulay metod bo‘lib hisoblanadi klinik amaliyotda muntazam foydalanish uchun tavsiya etilishi mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar royxati:**

1. Black C.M., Matucci-Cerinic M., Guillevin L. Progress in systemic sclerosis: a 10-year perspective. *Rheumatology (Oxford)* 2009;48:iii1—iii2
2. LeRoy E.C., Black C., Fleischmajer R. et al. Scleroderma (systemic sclerosis): classification, subsets and pathogenesis. *J Rheumatol* 1988;15(2):202—
3. Gabrielli A., Avvedimento E.V., Krieg T. Scleroderma. *N Engl J Med* 2009;360:1989— 2003
4. Mayes M.D. Prevalence, Incidence, Survival, and Disease Characteristics of Systemic Sclerosis in a Large US Population. *Arthr Rheum* 2003;48(8):2246—55